

KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA AQLIY YOKI RUHIY HOLATNI KAMSITUVCHI MUROJAATLAR TAHLILI

Noila Mirxamidova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

noilamirhamidova@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-9516-5101>

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys va o'zbek tillarida aql-idrok hamda ruhiy holatni kamsituvchi peyorativ murojaatlar lingvopragmatik va qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Koreys tilidagi 호칭어 va 지칭어 murojaat shakllari hamda 바보, 미친 kabi birliklarning qo'llanish xususiyatlari o'zbek tilidagi muqobil peyorativ murojaatlar bilan qiyoslanadi. Tadqiqot natijalari mazkur murojaatlar shaxsning aqliy va ruhiy holatini salbiy baholash orqali diskriminativ mazmuni yuzaga keltirishini hamda nutq madaniyatida ulardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: peyorativ murojaat, lisoniy diskriminatsiya, koreys tili, o'zbek tili, murojaat birliklari, aql-idrok, ruhiy holat.

Аннотация: В данной статье анализируются пейоративные выражения, принижающие интеллект и психическое состояние человека, в корейском и узбекском языках с лингвистопрагматической и сравнительной точек зрения. Корейские формы 호칭어 и 지칭어, а также особенности употребления таких единиц, как 바보 и 미친, сравниваются с альтернативными уничижительными выражениями в узбекском языке. Результаты исследования показывают, что эти выражения создают дискриминационное содержание, негативно оценивая психическое состояние человека, и что их следует использовать с осторожностью в речевой культуре.

Ключевые слова: Пейоративные выражения, языковая дискриминация, корейский язык, узбекский язык, единицы обращения, интеллект, психическое состояние.

Abstract: This article analyzes pejorative expressions that diminish a person's intelligence and mental state in Korean and Uzbek from a linguistic and comparative perspective. The Korean forms 호칭어 and 지칭어, as well as the usage of units such as 바보 and 미친, are compared with alternative derogatory expressions in Uzbek. The results of the study demonstrate that these expressions convey discriminatory content, negatively assessing a person's mental state, and that they should be used with caution in speech culture.

Keywords: Pejorative expressions, linguistic discrimination, Korean language, Uzbek language, units of address, intelligence, mental state.

Koreys tilida “murojaat” tushunchasi uchun umumiy 청호 [jeongho] termini qo‘llaniladi. Biroq shuni ta’kidlash joizki, koreys tilida murojaat ikki turdagi: 호칭어 [hochingeo] va 지칭어 [jichingeo] murojaatlarini o‘z ichiga oladi. 호칭어 [hochingeo] – adresatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, 지칭어 [jichingeo] esa – adresatga uchinchi shaxs haqida gapirganda murojaat qilishni anglatadi¹². Bu koreys xalqining mentaliteti va iyerarxik jamiyatga xos xususiyat bo‘lib, suhbatdoshga nisbatan hurmatni ifodalash uchun alohida murojaat shakllari qo‘llaniladi¹³.

Koreys va o‘zbek tillarida tushunmovchiliklarni bo‘rttirib, salbiy baho berish ma’nosida aqliy yoki ruhiy holatni kamsituvchi murojaatlardan ham keng istifoda etiladi. Bunday murojaatlar ko‘pincha insonning aql-idroki va ruhiy barqarorligini nosog‘lom yoki nuqsonli ko‘rsatib baholash uchun qo‘llaniladi.

Koreys tilida aqliy yoki ruhiy holatni kamsituvchi murojaatlar sifatida ko‘pincha 바보 [pabo] leksemasidan foydalaniladi. U o‘zbek tilidagi *ahmoq*, *tentak* leksemalariga muqobil bo‘ladi. Odatda, 바보 [pabo] so‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘riga aytilganda, haqorat hisoblanmaydi. Ba’zan yaqin kishilar, do‘stlar, sevishganlar orasida hazil yoki tanbeh sifatida isjlatiladi. Biroq 바보 [pabo] peyorativ murojaat sifatida qo‘llanilganda jiddiy haqorat deb qabul qilinadi. Masalan:

바보, 바보, 바보! 내가 미쳤지. 왜 핸드폰을 식탁에...¹⁴ [Pabo, Pabo, Pabo! Naega michyeottji. wae haendeuponeul shitag-e...]

Eh, tentak, tentak! *Sen esingni yeganmisan, nega telefonni stol ustiga...*

Koreys tilida 미친 [michin] *telba*, *jinni* peyorativ murojaati 바보 [pabo]ga nisbatan ancha kuchli haqorat konnotatsiyasiga ega bo‘lib, uni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Chunki bu leksema suhbatdosh tominidan noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin. 미친 [michin] peyorativ murojaati 년 [nyeon] (ayolga nisbatan) yoki 놈 [nom] (erkakka nisbatan) so‘zlari bilan kombinatsiyalar hosil qilib qo‘llanilganda juda qo‘pol, og‘ir haqoratni ifodalaydi va aksariyat holatlarda jahl va g‘azab bilan baland ovozda aytiladi. Masalan, 미친놈 [michinnom] jinni, *telba odam*; 미친년 [michinnyeon] jinni, *telba ayol*.

O‘zbek tilida *ahmoq*, *jinni*, *telba*, *kaltafahm*, *nodon*, *xomkalla*, *esipas*, *noshud* kabilar peyorativ nutqda aql-idrok va ruhiy holatni kamsitib, ular aksariyat hollarda ayollarga nisbatan qo‘llaniladi. Aql-idrokni kamsituvchi peyorativ murojaatlarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

– *Nimaga urasiz? Gunohim nima? — dedi xotin yig‘lamsirab.*

¹² 왕환석 등. 한국 사회와 호칭어. 도서출판 역락, 2005. – 18 쪽. 표준국어대사전: <https://stdict.korean.go.kr/>

¹³ Hwang J.-R. Role of sociolinguistics in foreign language education with reference to Korean and English terms of address and levels of deference: Doctoral dissertation. University of Texas at Austin. 1975. – P. 26.

¹⁴ 오세발. 동화선집. – 국내도서, 2013.

– Sen **ahmoq** odam aytadigan gapni aytding, — dedi Zelixon.

– Qaysi gap? – deb ajablandi xotin¹⁵.

Yoki:

– **O‘v, jinni!** – dedi to‘satdan jazavasi tutib. – Sherzod suzishga usta. Sen o‘lib ketasan. Bitta qiz deb o‘lib ketasan, **ahmoq!**¹⁶

O‘zbek tilida insonning aql-idrokini nosog‘lom yoki nuqsonli ko‘rsatib baholashda ko‘pincha miya va kalla so‘zlaridan yasalgan kombinatsiyalardan faol istifoda etiladi:

– Siyosiy ko‘rlikdan qachon qutulasanlar o‘zi?! Qachongacha men sen galvarslarni deb dakki eshitaman? **Sen, qovoqmiya**, bularga nima deb ayb qo‘yyapsan?¹⁷

– Voy, **xomkallalar**, voy **xomkallalar!** Axir bu fan, siyosat emas!¹⁸

Umuman, koreys va o‘zbek tillarida aql-idrok va ruhiy holatni kamsituvchi peyorativ murojaatlarning qo‘llanilishi insonning eng muhim belgisi bo‘lgan aql va ruhiy sog‘ligiga salbiy ta‘sir qiladi. Shu bois bunday murojaatlarni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash lozim bo‘ladi.

¹⁵ Малик Т. Шайтанат. Иккинчи китоб. – Б. 33. <https://www.ziyouz.com>.

¹⁶ Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 577.

¹⁷ Малик Т. Шайтанат. Учинчи китоб. – Б. 58. <https://www.ziyouz.com>

¹⁸ Малик Т. Шайтанат. Учинчи китоб. – Б. 135. <https://www.ziyouz.com>